

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAHALLIY O'ZINI O'ZI BOSHQARISH
ORGANLARI, DAVLAT XIZMATCHISI KADRLAR XIZMAT VAZIFALARI.**

Qosimov Azimjon Sanaqul o'g'li
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maktab menejmenti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jamiyat taraqqiyotining asosini hal qiluvchi davlat xizmati kadrlari masalasi haqida ma'lumotlar o'rin olgan. Bundan tashqari bugungi kunda davlat xizmatchilarining asosiy vazifalari va xorij tajribasi haqida ma'lumotlar ham keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *davlat xizmatchisi, siyosiy jarayonlar, davlat siyosati tahlili, boshqaruv san'ati, davlat sektori amaliyotini boshqarish, boshqaruv xodimlarini tanlash, tayinlash va tarbiyalash.*

Аннотация: *В данной статье содержится информация о проблеме кадров государственной службы, которая является основой развития общества. Кроме того, сегодня представлена информация об основных задачах государственных служащих из зарубежного опыта.*

Ключевые слова: *государственный служащий, политические процессы, анализ государственной политики, искусство управления, практика управления государственным сектором, подбор, назначение и обучение управленческих кадров*

Abstract: *This article contains information about the issue of public service personnel, which is the basis of the development of society. In addition, information about the main tasks of civil servants and foreign experience is also presented today.*

Key words: *public servant, political processes, analysis of public policy, art of management, management of public sector practice, selection, appointment and education of management personnel.*

Bugun dunyoda kadrlar jamiyat taraqqiyotining asosiy hal qiluvchi kuchiga aylanib, ular faoliyatining samaradorligini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Har bir davlatda islohotlarning izchil va samarali amalga oshirilishi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va huquqiy jihatdan rivojlanishini ta'minlaydigan kadrlarni tayyorlash va joy-joyiga qo'yish ustuvor vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, siyosiy jarayonlardagi o'zgarishlar davlat xizmatiga munosib kadrlarni tayyorlash masalasini yanada dolzarblashtirmoqda.

O'zbekistonda mustaqillikning ilk davridanoq davlat xizmati kadrlarini tayyorlash davlatimiz oldidagi muhim vazifalardan biri etib belgilandi. Ayniqsa, ularni fidoyi, vatanparvar, malakali va ijtimoiy faol kilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi tashkil etildi. Bugungi kunga kelib mamlakatimizda davlat xizmati kadrlari tizimining

shakllanish va rivojlanish jarayonining yangi bosqichi boshlandi. Bunda kadrlar mas'uliyati, o'z ishiga tanqidiy va tahliliy yondashib borishi, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining mezoniga aylandi. Ayniqsa, mamlakatimizda davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish, amalga oshiriladigan vazifalarni aniq belgilash, davlat xizmati kadrlari faoliyatini yanada takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilayotgani ushbu masalaning ahamiyatli ekanini tasdiqlaydi.

Bugun davlat xizmati kadrlari masalasi AQSh, Germaniya, Rossiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlarda davlat xizmati tahlili, davlat siyosati tahlili, boshqaruv san'ati, davlat sektori amaliyotini boshqarish, boshqaruv xodimlarini tanlash, tayinlash va tarbiyalash kabi qator fanlarda ham tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmokda. O'zbekistonda ham milliy va xorijiy tajribalar asosida yuksak saloxiyatli davlat xizmati kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash jarayonini tizimli va samarali tashkil etish hamda davlat xizmati sohasidagi kadrlar faoliyatini takomillashtirish masalasi tubdan yangi bosqichga ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Respublikasida "O'zbekiston tasdiklash Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini to'g'risida"gi PF-5185-son Farmoni (2017), "Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5278-son Farmoni (2017), "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3430-son Qarori (2017), "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da[1] amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5308-sonli Farmoni (2018), shuningdek, sohaga oid boshka normativ-xukukiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

O'zbekistonda davlat xizmatining amaldagi tizimi XX acp 90-yillarining boshida ittifoq tipidagi totalitar davlat tizimi o'rnida demokratik respublika tashkil topganidan so'ng yuzaga keldi. 1992 yilgi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, yangi qonunlar, O'zbekiston Prezidenti farmonlari, Hukumat qarorlarining qarorlarining qabul qilinishi natijasida ko'rib chiqilayotgan hukukiy institutga muayyan o'zgartirishlar kiritildi, davlat xizmati faoliyatining bir kancha yangi qoidalari mustahkamlab qo'yildi.

Darhaqiqat, hozirgi paytda «faqat zamon bilan teng qadam tashlayotgan, tez o'zgarayotgan dunyoning qat'iy shart va talablariga javob berishga intilayotgan mamlakatning kelajagi yorug' bo'lishi mumkin» Shu jihatdan olib qaraganda, suveren davlatimizning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishi va taraqqiyotga yo'naltirilgan qarorlarning hayotga tatbiq etilishi, avvalambor, bu ishlarni amalga oshirish vazifasi zimmasiga yuklatilgan organlar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va oddiy xodimlarning o'z vazifa va majburiyatlariga vijdonan, mas'uliyat bilan yondashishlariga bog'liqdir. Shu munosabat bilan taraqqiyotimizning hozirgi

boskichida, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida mas'uliyat masalasi yanada dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, jamiyatni demokratlashtirish va Yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh etishda bevosita aholi ehtiyojlarini qondirish bilan bog'lik faoliyat olib boradigan turli idora va tashkilotlarning rahbarlari zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklanganligi aslo bejiz emas.

"Davlat xizmati" ma'lum bir davlat hududida o'sha davlatning tinchligi, xavfsizligi, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa har taraqqiyotiga qaratilgan davlat ahamiyatidagi faoliyat tomonlama dasturlari va rejalarini ishlab chiquvchi, ularni amalga oshiruvchi, amalga oshirilishini nazorat qiluvchi va boshqaruvchi tizimdir.

"Davlat xizmati kadrlari" ma'lum bir davlat hududida o'sha davlatning tinchligi, xavfsizligi, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa har tomonlama taraqqiyotiga qaratilgan davlat ahamiyatidagi faoliyat dasturlari va rejalarini ishlab chikuvchi, ularni amalga oshiruvchi, amalga oshirilishini nazorat qiluvchi va boshqaruv uchun mas'ul shaxslardir. Ammo shuni alohida qayd etish joizki, qonunchilik davlat xizmatining barcha turlarini tashkil etish va ularning faoliyati muammolarini to'liq hal qila olgani yo'q. Ko'pgina normativ-huquqiy hujjatlar zamon talablariga javob bermaydi, chunki davlat xizmatining mohiyatini, uning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradigan O'zbekiston Respublikasining «Davlat xizmati va davlat xizmatchilari to'g'risida»gi Qonuni hanuz qabul qilingani yo'q. Shuning uchun ham iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan vaziyat butun davlat xizmati tizimini isloh etish muammosini dolzarb qilib qo'yimoqda. Chunki, davlat xizmati muammosi — bu davlat munosabatlarini amalga oshirish, kuchli va layoqatli hokimiyat muammosidir.

Bu muammo ancha murakkab hisoblanadi. Buning sababi shundaki, mustabid sho'ro hokimiyati davrida, ya'ni u o'rnatilgan 1917 yildan to sobiq ittifoq parchalangunga qadar, davlat xizmatchilari to'g'risida bironta ham qonun qabul qilinmagan.[2,6] Bu, albatta, nomatlub, g'ayritabiiy hodisa bo'lib, xar kanday rivojlangan davlat o'z davlat mexanizmini davlat xizmatchilari to'g'risidagi qonun asosida qurishi lozim. Buning aksi bo'lishi mumkin emas: barcha zamonlarda kadrlar davlat mexanizmining muhim, jonli elementini tashkil etgan.

Shu o'rinda muhokama qilinayotgan tushunchani ta'riflashga nisbatan yondashuvga yana bir misol keltiramiz: «Davlat xizmati apparatining amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan tashkiliy-tarkibiy tuzilishi va mazkur apparat xodimlarining (davlat xizmatchilarining) jamiyat ehtiyojlarini qondirish, shaxs xukuklari va manfaatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida davlat boshqaruvi vazifalarini bajarish borasidagi faoliyatidir»[3,13]

Ma'lumki, davlat hokimiyati va davlat xizmati muammolari bilan insoniyat ko'pdan beri shug'ullanib keladi. Qadimgi Sharq hamda Yevropaning antik davr mamlakatlaridayoq davlat mexanizmi ancha izchil tizimdan iborat bo'lgan. Bu tizim, odatda, davlat boshlig'i (monarx yoki kollegial organ), markaziy idoralar, mansabdor shaxslar, mahalliy organlar, amaldorlar, armiya, sud, politsiyadan tashkil topgan.

Yukorida ta'kidlab o'tganimizdek, jahonda davlat xizmatining bir necha tizimlari mavjud: sobiq sotsialistik lager mamlakatlariga xos bo'lgan totalitar yo'nalishdagi davlat xizmati tizimi; xizmatning doimiyligiga, uning yopikligiga, aloxida xukukiy tartibga solishga asoslangan yopik davlat xizmati tizimi (u Buyuk Britaniya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda ko'llaniladi); davlat xizmati tizimidan biznesga, fanga va boshqa sohalarga o'tish imkonini beradigan ochiq davlat xizmati tizimi (AQSh, Kanada, Finlyandiya).

Bunda, albatta, birovning tajribasidan ko'r-ko'rona nusxa ko'chirmasdan, mamlakatimizning rivojlanish xususiyatlariga javob beradigan jihatlarnigina o'zlashtirish lozim. Lekin shunisi dikkatta sazovorki, yukorida sanab o'tilgan tizimlarning barchasida aynan tizimli yondashuv ko'llangan. Bizning nazarimizda, ayniksa, kadrlar masalasini xal etishda, kadrlar bilan ishlashni isloh qilishda tizimli yondashuv zarur.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov birinchi chaqirik Oliy Majlisning IV sessiyasidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek: «Barcha xizmatchilar uchun, ular qaerda xizmat qilishidan qat'i nazar, huquq va majburiyatlarning umumiy ro'yxati, tayyorgarlik va malaka oshirishning umumiy tizimi, layokatlik nazorati, davlat xizmatining umumiy me'yorlari, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashning umumiy tizimi amal kilishi kerak»[4,85].

Bu muhim qoidalarga asoslanib quyidagi fikrni ilgari surish mumkin, ya'ni: davlat xizmatini isloh etish zahirida, avvalo, davlat xizmatchilari, rahbar kadrlarga e'tiborni nazarda tutadigan tizimli yondashuv yotishi lozim.

Ma'lumki, mamlakatimizning davlat hokimiyati organlarida juda ko'p mutaxassislar va rahbarlar band kilingan. «Davlat xizmatchisi shunchaki birovga xizmat qilmaydi, u davlat ahamiyatiga molik xizmat vazifalarining keng doirasini bajaradi. U fukarolarning davlat haqidagi mavhum qarashlari bilan davlating o'zi o'rtasida, demokratiya bilan uning amaldagi ro'yobi o'rtasida boglovchi bo'g'in hisoblanadi»[5,42]

Davlat hokimiyati organlarida kadrlardan samarali foydalanish ularni asosli tarzda taqsimlashni, ulardan bilimi, malakasi va kasbiy tayyorgarlik darajasiga muvofik okilona foydalanishni, ya'ni kadrlardan ularning mexnati ko'proq samara beradigan jabhalarda foydalanishni, ularning mehnat unumdorligini oshirish uchun shart-sharoit yaratishni nazarda tutadi.

Shuni ham aloxida ta'kidlab o'tish lozimki, hozirgi vaqtda kadrlardan foydalanishni yaxshilash boshqaruvning zamonaviy tuzilmasini, mutaxassislar sonining asoslantirilgan normativlarini amalga joriy etish hamda lavozimlar nomenklaturasidan foydalanish bilan boglik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.// O'zbekistonhujjatlaritoplami.-T.,2017.-B.39.
2. Комаровский В.С., Тимофеева Л.Н. Конфликты граждан чиновниками: почему и за чем? // Государство и право. – М., 1997. - Но 10. - С.238
3. Буравлев Ю.М.
Проблемы реформирования и управления системой государственной службы в России // Государство и право. М., 2012. -Но 7. - С.36
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. Toshkent: O'zbekiston, 1996.- B.185.
5. Охоцкий И.В. Развитие интеллектуально-кадрового потенциала государственной службы парламента и его правовые основы. М., 2002. -С.145.
5. Uktamovna, M. M. (2023). O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI. OBRAZLI EPITETLAR. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(23), 439-444.
5. Mamadjanova, M. (2023). ESSENTIAL CHARACTERISTICS OF EPITHET. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(10), 89-91.
6. Uktamovna, M. M. (2022). EPITETNING LINGVISTIK TABIATI. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(8), 26-30.
7. Uktamovna, M. M. (2023). TRANSFERRED EPITHET IN ENGLISH LANGUAGE. Научный Фокус, 1(1), 921-924.
8. Mamadjanova, M. U. (2022). O 'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG 'ISHTIRMA TADQIQI. ANTONAMAZIYA EPITETLAR. RESEARCH AND EDUCATION, 1(5), 110-115.